

# Rivojlantiruvchi Markazlarda Bolalarni Aqliy Rivojlantirish Texnologiyasi

*Muhammadjanova Nozima Turg'unboy qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Tarbiyachi rivojlantiruvchi ta'limiy muhitni talab darajasida tayyorlasa va jihozlasa, bolalar rivojlantiruvchi markazlarda tarbiyachilar bilan hamkorlikda keyin esa mustaqil faoliyat olib borishi uchun muammolar yuzaga kelmaydi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida, rivojlantiruvchi markazlarda bolalarning aqliy rivojlanish texnologiyasini klaster metodi orqali tushuntirish yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quv - tarbiyaviy faoliyat, yosh avlod tarbiyasi, ta'lim, o'sish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayoni uzlukli shaklda tashkil etilgan bo'lib, bu o'ziga xos tartib va tizimga ega. Jamiyatning bosh poydevori sanalgan maktabgacha ta'lim jarayoni ham ta'lim sifatinining yetuk shaklda bo'lishini ta'minlaydi. Shu boisdan davlat bu tashkilotga ham o'z diqqat e'tiborini chuqur qaratadi. Yosh avlod tarbiyasi, ta'limi, o'sishi, rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatlari maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,

1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi.
2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhalarda mavjud markazlar hamda umumiylar ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar.
3. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)

<sup>1</sup> Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistrant



4. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
5. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)
6. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidalari o'yinlar)
7. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari).

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.


Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani har tomonlama, jumladan, ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalari birgalikda olib borilib bola maktabga chiqariladi. Bola MTTda olgan bilimlarini maktabda davom ettirishga shundagina qiyalmaydi.

Aql keng ma'noda sezish, idrok etishdan boshlanadigan tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan jarayondir. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollilikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir. Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni mакtab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish etarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tevarak-atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga, ya'ni analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. (Issiq-sovuq, g'adir-budir). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv - tarbiyaviy faoliyati beshta rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etiladi. Ular quyidagilar:





Bolaga yangi mavzu haqida tushunchalar berilib, markazlardagi faoliyatlar orqali ularning bilimlari rivojlantirilib boriladi. Markazlarda ishslash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkonini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalar va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqilizlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlantirish markazlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, video namoyishlari, ijodiy faoliyat, tajribalardan foydalanib faoliyat olib borish ta'lif samaradorligiga ijobjiy ta'sir qiladi.

Bola yeti yoshga to'lganda maktab ta'limga boradi va ayni markazlar faoliyati mакtabda quyidagi fanlar kesimida davom etadi:

1. Alifbe
2. Ona tili va o'qish savodxonligi.
3. Matematika
4. Tabiiy fanlar
5. Musiqa, tasviriy faoliyat, texnologiya

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida markazlar faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bola maktab ta'limga tayyor holda boradi va maktabdagi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Pedagogika yo'nalishidagi Oliy ta'lif muassasalarining Maktabgacha ta'lif yo'nalishi o'quv rejasiga "Markazlar faoliyati va uslubiyoti", "Rivojlantiruvchi markazlarda ta'lif –tarbiya berish" kabi



fanlar kiritilgan Oliy ta'linda bo'lajak tarbiyachilarni zamonaviy, xorijiy davlatlar bilan raqobatbardosh, innovatsion bilimlar bilan quollantirilsa ular o'z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil eta oladilar.

Klasterni muayyan xamkorlikka asoslangan tizim deyish mumkin, ammo uning oddiy tizimdan farqli jihatlari mavjud. Bu maxsus, o,ziga xos tizim bo,lib, elementlarni qo,,shish bilan uning ishi yaxshilanadi, ammo olib tashlash bilan halokatli oqibatlar kuzatilmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika Toshkent 2019 y.
2. Shaxsga yo"naltirilgan yondashuv asosida ta"lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo"llanma Toshkent. 2020 21-bet
3. Aliqulova M.Sh. Shaxsga yo"naltirilgan ta"lim – bola imkoniyatlari poydevoridir. Oriental renaissance: innovate, educational, natural and social sciences 1/9 2021,459464-bet
4. G'.I.Muxamedov Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija Xalq so"zi 15.02.2019
5. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta"lim innovatsion klasteri (O"zbekiston ta"lim tizimi misolida) Academic research in educational sciences 1/4 2020 537-547-bet
6. D. Q. Asqarova Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi Toshkent 2020

